

TENGLAMALAR

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi II kurs magistranti
Karimova Kamola Komil qizi*

Mavzu: Tenglamalar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarning noma'lum sonni topish, tenglama va tenglama tuzish orqali masalalarni yechish ko'nikmalarini takomillashtirish.

TK: fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

TK: fazoviy shakllarga oid masalalarni yecha olish.

Tarbiyaviy: dars jarayonida tartib-intizomga rioya qilish ko'nikmalarini mustahkamlash;

TK: atrofdegilar bilan o'zaro muloqot chog'ida fikrni erkin bayon qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning hayoliy tasavvurlarini, ta'riflay olish malakalarini rivojlantirish.

TK: o'rganilgan matematik tushunchalar, faktlar va algoritmlarni o'quv vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qila olish.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: doska, bo'r, ko'rgazmalar, qaychi, yelim

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism. O'quvchilar bilan salomlashiladi. Davomat aniqlanadi.

O'quvchilar: Assalomu aleykum aziz ustozim,

Biz sizga hamisha qilamiz ta'zim.

O'qituvchi: Vaaleykum assalom bolajonlarim

Ishonchim, quvonchim, aziz o'quvchilarim.

O'qituvchi: Bolajonlar sog' omonmisiz

Bugun darsga tayyormiz?

O'quvchilar: Hammamiz sog' omomnmiz

Yangi darsga tayyormiz.

O'qituvchi: Har narsadan xabarchi

Sinfda kim navbatchi?

O'quvchi: Sinfda men navbatchi

Darsga tayyor barcha o'quvchi

-Aziz bolajonlar hozir darsimiz nima?

Matematika haqida she'r aytiladi.

Maktabga kelishdan maqsadimiz


Kelib ketmang bilib keting
 O‘qib ketmang uqib keting
 Dars shiori aytiladi:
 Kim matematikani bilmasa haqiqatni bilmaydi.
 Kim uni tushunmasa zulmatda yashaydi.
 Maqsadimiz: Ishonch bilan biz oldinga mag‘rur yurib boramiz
 Erta biz bu kelajakning chin qiz o‘g‘li bo‘lamiz
 Qani bu haqida matematika darsligimiz nima der ekan?
 Mening ishim hisob-kitob
 Hamda berish nur-u oftob
 Bo‘lmay qolsam agar bir kun
 Dunyo bo‘lar zim-ziyo tun

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun “Ajurli arra” metodidan foydalaniladi. Metod haqida o‘quvchilarga tushuncha beriladi. So‘ng bo‘laklardan tashkil topgan ko‘p amalli uchta ifoda beriladi. Har bir qatorga 1 ta ifoda beriladi va guruh bilan birgalikda ifodani to‘g‘ri birlashtirishlari kerak bo‘ladi. (Ushbu metod orqali o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi. Shu bilan birga, bu metod modellashtirish standartiga misol bo‘la oladi;M2)


1-ifoda

$$583 + 167 - (900 - 623 + 184) = 289$$




2-ifoda

$$(900 - 381 - 239) + (600 - 261) = 619$$



3-ifoda

$$963 - (251 + 134) - (691 - 512) = 336$$



III.Mavzuni mustahkamlash. O‘quvchilar allaqachon 2-sinfda “Tenglama” tushunchasi bilan tanishib olishgan.

“Noma’lum qatnashgan tenglik tenglama deyiladi.

Tenglamani yechish bu – noma’lumni topish” ekanligini o‘quvchilar yaxshi bilishadi. O‘quvchilarning tenglama haqidagi bilimlarini sinash maqsadida ular bilan qisqa savol-javob o‘tkaziladi?

- O‘quvchilar tenglama deganda nimani tushunasiz?
- Tenglama nimalardan tashkil topadi?
- Tenglamada nimani topish kerak?
- Noma’lum sonni nima bilan belgilaymiz?

O‘quvchilar bilan tenglama haqidagi bilimlar takrorlanib olingandan so‘ng, darslikdagi misollar yechiladi.

1) Qo‘shishda sonlar o‘zaro qanday bog‘langanligini eslang va jadvalni to‘ldiring:

Qo‘shiluvchi	24	45			2 997	3 071
Qo‘shiluvchi			127	408		
Yig‘indi	99	200	427	909	8 999	7 102

Jadval xuddi shu tarzda ko‘rgazma holatida tayyorlanadi va javoblari kartochkalarga yozilib stol ustiga qo‘yiladi. O‘quvchilar doskaga chiqib, bo‘sh kataklarga javob kartochkalarini yopishtiradilar.(Bu topshiriq o‘quvchilardan olingan bilimlarni mustahkamlash va ular asosida bo‘sh kataklarni to‘ldirishni talab etadi. (Mulohaza yuritish, M1)



2-bandidagi tenglamaning yechilishi va tekshirilishi tushuntiriladi.

2-misoldagi tenglamalar namuna bo‘yicha yechiladi va tekshiriladi.

3-misolda jumalar tenglama shaklida yoziladi va bu tenglamalar yechiladi. Doskada ham bajariladi.

4-masala sharti o‘qiladi va o‘quvchilardan qanday yechish mumkinligi so‘raladi. Bir nechta o‘quvchidan tinglangandan so‘ng daftarga yoziladi. Bir o‘quvchi masalani doskada bajaradi.

5-masala sharti o‘qiladi va A nuqta kubning qayerida joylashganligi o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilar tasavvurlaridan foydalanib A nuqta qayerda ekanligini topishga harakat qilishadi. Barcha o‘quvchilar tinglangach, to‘g‘ri javob aytiladi va uni asoslash uchun ko‘rgazmali tushuntirib beriladi. Barcha o‘quvchilar darslikda keltirilgan shaklni daftar varag‘iga chizishadi, A nuqta belgilab olib qirqib olishadi. Shakl qirqib olingach, birlashtirib yelimlanadi. Kub tayyor bo‘lgach A nuqta 1 ga teng ekanligi asoslab beriladi.

(Bu topshiriq o‘quvchilarda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Jumladan, topshiriq mantiqiy ko‘rinishda bo‘lganligi sababli ularda mulohaza yuritish (M1) va modellashtirish(M2) standartlari rivojlantiriladi).

IV. O‘quvchilarni baholash va darsni yakunlash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilar va guruhlar baholanadi va rag‘batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish. Darslikning uyga vazifa qismida berilgan topshiriqlar sharti tushuntirib beriladi.